

HOKIM A'ZOSI SIFAT BILAN IFODALANGAN SO'Z BIRIKMALARI*Satimova Ra`noxon Habibullayevna**AndDTI akademik litseyi oliy toifali ona tili va adabiyot fani o`qituvchisi*

Annotatsiya: Sifat predmetlarning belgi-xususiyatini bildirgan lug'aviy birliklar turkumi va alohida olingan belgi ma'noli leksemalarini nomlaydi. O'zbek formal tilshunosligida olti mustaqil so'z turkumidan biri sifat ekanligi o'rta maktab darsligidanoq ma'lum. Sifatning nutq bosqichidagi talqinidan farqli o'laroq, substansial tilshunoslik so'zlarni tasniflash masalasiga dialektik mantiqiy nuqtayi nazardan yondashdi. Sifat predmetga xos belgi-xususiyatni bildirar ekan, uning lug'aviy ma'no imkoniyatlari mazkur turkumidagi so'zlarning boshqa so'zlar bilan birikuvida namoyon bo'ladi' zero sifat leksemalari nutqda hech vaqt alohida yuzaga chiqmaydi.

Kalit so'zlar: leksema, hokim so'z ,so'z birikmasi, mustaqil so'z, sifat, lug'aviy ma'no

Ayonki, sifat predmetlarning belgi-xususiyatini bildirgan lug'aviy birliklar turkumi va alohida olingan belgi ma'noli leksemalarini nomlaydi. O'zbek formal tilshunosligida olti mustaqil so'z turkumidan biri sifat ekanligi o'rta maktab darsligidanoq ma'lum. Sifatning nutq bosqichidagi talqinidan farqli o'laroq, substansial tilshunoslik so'zlarni tasniflash masalasiga dialektik mantiqiy nuqtayi nazardan yondashdi. Sifat predmetga xos belgi-xususiyatni bildirar ekan, uning lug'aviy ma'no imkoniyatlari mazkur turkumidagi so'zlarning boshqa so'zlar bilan birikuvida namoyon bo'ladi' zero sifat leksemalari nutqda hech vaqt alohida yuzaga chiqmaydi. Ular asosan ot va fe'l leksemalari bilan birikib, muayyan predmet, narsahodisa, harakat vaholatning belgi xususiyatini ifodalab keladi. Jumladan, *katta ko'cha, moviy osmon, shirin qovun* SB larida sifatlar tobe a'zo mavqeyida voqelangan. Mazkur birikmalarni ikki turga ajratish mumkin. Birinchi turdag'i hosilalar, ya'ni *katta ko'cha, moviy osmon, shirin qovun* birikmalarida sifatlar –

“katta”, “moviy”, “shirin leksemalari predmet, narsa-hodisani nomlovchi leksemalar – “ko’cha”, “osmon”, “qovun” ning u yoki bu belgi xususiyatini aniqlashtirganligi bois tobe vaziyatni egallaydi. Ko’rinadiki, bu ikki turdag'i hosilalar sifat leksemalarining tobe vaziyatini egallashi tufayli yuzaga keladi. Biroq hosilani bir-biridan farqlovchi jihat hokim vaziyatni egallagan leksemalarning ot va fe'l turkumiga mansubligi bilan bog'liq. Sifat ot va fe'llar bilan sintaktik aloqaga kirishar ekan, predmet va harakatning belgi xususiyatini aniqlashga xizmat qiladi. Bu vazifa sifatning tobe vaziyatda voqelanishini belgilab beradi ammo sifatning valentligi va u orqali belgilangan birikuvchanlik imkoniyatlari mazkur leksimalarning faqat tobe a'zo mavqeyida voqelanishi bilan chaegaralanmaydi. Sifat leksimalari “guldan nozik”, “temirdan qattiq”, “nondek aziz”, “moshdan yirik”, “osmon kabi bepoyon”, “husnda yagona”, “so'zga chechan”, “pulga o'ch” kabi nutqiy hosilalarda hokim a'zo mavqeyida gavdalananadi. Ko’rinadiki sifat nafaqat birikish, saylanish, balki biriktirish saylab olish imkoniyatiga ega bo'lib bu imkoniyat sifatida potensial holda mavjud ma'noviy morfologik va sintaktik valentliklarning ta'sirida yuzaga chiqadi. Biroq sifat leksimalari anglatuvchi belgi ma'nosi ham o'z navbatida, sifat leksimalari tobelantiruvchi ot, sifatdosh, harakat nomi, taqlid, undov, son, olmosh, leksemalari tomonidan konkretlashtiriladi. Natijada turli ma'noviy munosabatlarni ifodalovchi sifatli birikmalar hosil bo'ladi. Mazkur birikmalarda sifat hokim mavqeyida voqelashib, o'z lug'aviy ma'nosi, grammatik shakli va sintaktik pozitsiyasini tobelanuvchi so'z yordamida aniqlashtiradi, qiyoslang: ko'p (sifatdosh+sifat)

Eshitmoqdan avzal (harakat nomi+sifat)

Gum-gumdan uzoq (taqlid+sifat)

Rahmatga zor (undov+sifat)

Yuzdan kichik (son+sifat)

O'ziday chaqqon (olmosh+sifat)

sirga to'la(ot+sifat)

go'zallikka asir(ot+sifat)

pulga o'ch(ot+sifat)

Sifatning ma'noviy, morfologik va sintaktik valentlikdagi unga tobelantirish, saylash huquqini bergani boyiz ot, sifatdosh, harakat nomi, taqlid, undov, son, olmosh leksemalari kelishik ko'makchi va o'xshatish shakli (ko'rsatkichi) yordamida sifat leksemalariga tobelanadi. Tobelanuvchi so'zlar hokim a'zo mavqeyidagi sifatlar ifodalayotgan belgi ma'nosini boshqa predmet, narsa, hodisa, harakat va holat bilan qiyoslaydi. Demak, hokim vaziyatda reallashgan sifatlar tobe vaziyatni egallagan ot, sifatdosh, harakat nomi, taqlid, undov, son, olmoshlarni boshqarish, qiyoslash, chog'ishtirish ma'noviy munosabatlarini shakllantiradi.

Bunday hokim a'zo lug'aviy asosidan anglashilgan belgi ma'nosini qiyoslanayotgan SB lari nutq bosqichida atroflicha o'rganilgan. Chunonchi, SB lari komponentlarining Grammatik tabiatiga ko'ra tasnifida

1. otli birikmalar;
2. fe'lli birikmalar;
3. ravishli birikmalar;
4. modal so'zli birikmalar sirasida alohoda;
5. sifatli birikmalar tarzida ajratilgan.

Biroq A.G'ulomov va M.Asqarova SB si tarkibidagi hokim komponentning qaysi so'z turkumiga kirishiga qarab, uch xil birikmani, jumladan, otli birikma, fe'lli va ravishli birikmalar farqlangada hokim vaziyatda sifat vooqelashgan birikmalarning "ot+ravish" birikuviga kiritishgan .mualliflar "ravishli birirkma" deb baholagan "ovozdan tez" va "o'qdan tez" SB larida "tez" sifati ravish turkumiga tegishli so'z sifatida talqin etilganligi bois, aslida, sifatli birikmalar "ravishli birikma" deb xulosalangan. Buning sababi ravish turkumining leksik grammatik jihatdan noaniq, ziddiyatli tadqiqida bo'lib, hozirgi kunda so'z turkumlarining substansial tahlili tufayli o'zbek tilini matabda o'qiyotgan o'quvchilardan tortib, ona tilimizni xorijiy til sifatida o'zlashtirayotganlarga qadar – barchaga "tez", "oz", "ko'p", "kam" so'zlari darajalanuvchanligi demak, sifat ekanligi, aksincha ravishlar darajalana olmasligi, umuman, morfologik jihatdan o'zgarmas so'zlar ekanligi

ma'lumdir. Shunday ekan, “mazkur mualliflar ravishli birikmalar turini tasniflayotganda SB lari orasida otli va fe'lli birikmalar kabi salmoqli o'rin tutgan sifatli birikmalarni nazarda tutishgan”, desak xato bo'lmas.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR :

- 1.. U. Tursunov, J. Muxtorov. Sh.Rahmatullaev. Hozirgi o'zbek adabiy tili. «O'zbekiston», Toshkent. 1992-yil
2. H.Jamolxonov. Hozirgi o'zbek adabiyot tilidan ma'ruza matnlari (Kirish. Fonetika va fonologiya. Grafika va orfografiya) Toshkent, 2000.
3. K.Safaev, R.Yunusov. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Morfologiya). Toshkent, 2000-yil.
4. M.Asqarova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2000-yil.
5. R.Ikromova D.Muhamedova, D.Shodmonqulova, X.G'ulomova. Hozirgi o'zbek adabiy tilidan ma'ruza matnlari (Sintaksis). Toshkent, 2001-yil.
6. Sh.Rahmatullayev. Hozirgi adabiy o'zbek tili. 2006, “Universitet” nashriyoti
7. R.Yunusov. O'zbek tilidan praktikum. 1-qism, 2006, TDPU.
8. O` Sharipova, I.Yo`ldoshev. Tilshunoslik asoslari. 2006, TDPU.